

Haqberdiyeva Jumagul
Hamdamovnaning

**“O’ZBEKISTONDA BALIQLARNI
IQLIMLASHTIRISH VA SUN’IY SUV
HAVZALARIDA BALIQ O’SТИRISH”**

mavzusidagi bitiruv - malakaviy ishi

TAQDIMOTI

Mavzuning dolzarbliji.

Mavzuning dolzarbliji. I.A.Karimovning Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari asarida quidagi "**Jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega**" deyilgan fikrlaridan kelib chiqib O'zbekiston sharoitida mahaliy ishlab chiqarishlardan hisoblanmish baliq mahsulotlarini yetishtirish va aholini sifatli, oqsilga boy mahsulotlari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida baliqlarni iqlimlashtirish xozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki baliqlar katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, baliq

go'shti tarkibida oqsil miqdori boshqa xayvonlar go'shtiga nisbatan yuqoridir. Baliq go'shti, ikralari tez xazm bo'ladi. Baliq go'shtida xolesterin deyarli bo'lmaydi.

Baliqlarni sun'iy ko'paytirish usullaridan yana biri xovuz baliq xo'jaligidir. Bunday xo'jaliklarga Oqqa'rg'on dagi, Ulug'nor tumanidagi xo'jaliklarni misol qilib olish mumkin.

Lekin shuni xam xisobga olish lozimki ayrim xo'jaliklarda xali maxsus baliq tuxumini urchitadigan laboratoriylar tashkil etilmagan. Bunga misol qilib, Farg'ona shaxri atrofidagi «O'roqboy ota» baliqchilik xo'jaligini, Uychi tumani territoriyasidagi baliqchilik xo'jaliklari kabilarni olish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

O'zbekistonda iqlimlashtieilgan baliqlar haqida ma'lum mulohazalarni yuritib, bunga qo'shimcha ravishda boshqa turga mansub baliq turlarini ham iqlimlashtirishni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari quyodagilarni o'z ichiga oladi:

o'lkamizda baliqchilikni rivojlantirish, suv havzalarimizni har xil turga mansub baliqlar bilan boyitish;

Baliqlarni ekologik va biologik hususiyatlarini har tomonlama o'rganib chiqish;

baliq zotlarini mazali go'sht va to'yimli ikra beradigan, tez yetiladigan turlarini iqlimlashtirish ishlarini davom ettirish;

baliqlarni ikrasi bilan va baliq sutini tez yetilishi uchun gipofizar in'eksiya metodlarini keng joriy etish;

baliq ikralarini sun'iy urchitish uchun maxsus laboratoriylar tashkil etish.

Ilmiy yangiligi:

1. Sun'iy suv havzalarida baliqlarning uvuldirig'ini tez yetishtirish uchun gipifizar in'eksiya usulini keng targ'ib etish.
2. Baliqlarni belgilangan ratsion asosida boqish.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati:

O'rog'boyota xususiy baliqchilik fermer xo'jaligidagi belgilangan ratsion asosida boqilib, o'tgan 2011 yilda 40 tonna sof baliq olib sotilgan bo'lsa, bu yil 2012 yili 53 tonnaga yetkaziladi.

Ilmiyligi. Ilmiy hulosalar asosida yangi baliq zotlarini iqlimlashtirish, sermaxsul baliq zotlari karp, sazan, oddiy do'ngipeshona, yo'lli do'ngipeshona va oq amur kabi baliqlarni o'stirishdan iborat.

Material va tadqiqot ishlari:

O'zbekistonda baliqlarni iqlimlashtirish bo'yicha O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Zoologiya ilmiy-tadqiqot instituti ixtiologiya laboratorisi olimlari tomonidan muhim ishlar amalga oshirilgan.

Keyingi 25-30 yil davomida O'zbekistonda qator suv inshootlarida maxsuldor ekologik jixatdan ko'payish qobiliyatiga ega bo'lgan baliqlarni iqlimlashtirish ishlari 1951-1952 yillarda boshlangan edi. Shu yillarda Moskva viloyatidagi kumush tovon baliqning keltirilishi, 1958-1960 yillarda Uzoq Sharq-Amudaryosi va Xitoydagi o'simlikxo'r oq Amur, do'ng peshona kabi baliqlarning olib kelinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1963 yilda Ural daryosidan keltirilgan oq sla, oqcha kabi baliqlarni iqlimlashtirish ishlari ham baliqchilik xo'jaliklarimizda mumkin ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, 1973 yili Issiqko'l cho'lbalig'ining 1983 yili esa pelyad balig'ining keltirilishi O'zbekiston ixtiofaunasini yanada boyitdi.

Shuningdek, baliqlarni iqlimlashtirish va ulardan yuqori maxsulotlar olish uchun ular boqiladigan suv havzalarini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

O'zbekiston sharoitida Sirdaryo, Zarafshon, Sansar, Qashqadaryo kabi suv havzalari xaqida ma'lumotlar bor: L.S.Berg (1932,1948,1949), G.V.

Ushkolskiy (1933, 1938, 1940), D.M.Muratova (1947), G.X.Shaposhnikova (1950), P.P.Pavlovskiy (1966, 1990), M.A.Abdullaeva (1969)


G.K.Komilov (1973), M.Muxammadiev (1982), X.Usurieva (1985), M.A.Abdullaeva, D.U.Urchinova (1989), T.Salixova (1990) va boshqalar.

Bu yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflar tomonidan O'zbekiston suv havzalarida jami 86 tur va kichik turga mansub baliqlar uchraydi.

O'rta Osiyo ixtifaunasini suv havzalari xaqidagi fikrlar L.S.Berg, G.V.Nikolskiy, G.U.Linsberg, F.A.Turdakova, G.Kamilov va boshqa tadqiqotchilarning ishlaridan bilish mumkin.

Karpsimonlar turkumiga kiruvchi muhim baliqlar turlarining ekologik xilma-xilligi


Nº	Turlar	Yashash muhiti	Tana o‘chami	Og‘irligi	Tuxum qo‘yish vaqtি	Tuxum soni	Lichinkalarни yetilishi	Ilmiy va amaliy ahamiyati
1	Oq Amur	Tinch oqadigan daryo va ko‘llar			Aprel-avgus t	100 ming 800 ming	32-40 soat	Iqlimlashtirilgan. O‘t bosgan kanallarni tozalaydi.
2	Usach	Daryolarning tez oqadigan erlari	85 sm		May-iyun	32 ming	3-5 kun	Tur bilan ovlanadigan baliqlardan biri
3	Oddiy marinka	Toza, til‘niq, tog‘ suvlari buloqlar	60 sm		May-iyul	25 ming	7-8 kun	Ikrasi zaxarli, ovlanadi.
4	Lesh	Tinch oqadigan chuchuk va sho‘r suvlari	55-70 sm		May	400 ming	3-4 kun	Go‘shti mazzali ko‘p ovlanadigan baliq
5	Sazan	Tinch oqadigan daryo va ko‘llar		1-4 (20) kg	Aprel-may	300 ming 1,8 mln	3-8 kun	Ovlanadigan asosiy baliq
6	Do‘ng peshona	Issiqsevar, chuchuk suv havzalar	1m	16-20 kg	Iyun-iyul	500 ming 2 mln	-	Ovlanadigan qimmatbaho baliq
7	Laqqa	Daryoning tez oqadigan joyi			Aprel-iyun	11 ming 1150ming	4-5 kun	Ovlanadigan mazzali va yog‘li baliq
8	Qora amur	Daryo va ko‘llar	120 sm		Iyun-iyul	200 ming	2-3 kun	Ovlanadigan va boqiladigan muhim baliq
9	Karas (tovon baliq)	Loyqa va botqoqlashgan suvlari	45 sm	500-600 ()	Iyun-iyul	300 ming	3-4 kun	Mazzali go‘shti uchun ovlanadi hamda boqiladi




Sudak




Karas



Tolstolobik



Lin



Peskar



Qizil labli jerex

Sun'iy suv havzalarida baliqlarni o'stirish.

Lichinkalarni suvgaga tashlash va yig'ib olishni yaxshisi tungi vaqtida bajarilgani yaxshi. Bunda suvni yuza qatlqidagi temperatura biroz pasayadi.

O'simlikxo'r baliqlarning lichinkalari suvning chuqur qatlamlariga tushiriiladi.

Lichinkalarni boshqa havzaga solish uchun tutish maxsus malka yig'ish asboblari yordamida amalga oshiriladi.

Solinadigan yashiklar o'lchami 3,5-4 x 1,2-1,5 m bo'ladi.

Tutgikich o'lchami 15-20 sm bo'ladi.

Tashlangan lichinkalarning chiqishi 60-70% dan kam bo'lmasligi lozim. Transportirovkasi oldidan suzuvchi idishlarda saqlab turiladi. 10-12 soat davomida lichinkalar ichagi ovqat qoldiqlaridan tozalanadi, so'ng tashiladi. 1 ta paketga 5-25 ming lichinka joylanadi. Transportirovkadagi chiqindilar 3-5% dan oshmasligi kerak.

Baliqlarning epizootologiyasi va profilaktikasi.

Kasalliklarga qarshi baliqlar kasalliklarga uncha chidamsizdir. Xaroratni pasayib ketishi ularda shamollash, jabralarini yallig'lanishi, terisini yallig'lanishi xolatlarini keltirib chiqaradi. Kasalliklar orasida baliqlar uchun xavfisi bakterial kasalliklardir. Bulardan biri karp baliqlaridagi krasnuxa kasalligidir. Shuningdek zamburug' kasalliklar xam baliqlar uchun xavflidir.

Ayniqa kasal va nimjon baliqlarga tez yuqadi. Baliqlarda ichki parazitlar ham mavjud bo'lib, bular Phycomycetes gruppasidan bo'lib qon va jabrani sezilarli kassaliklarini keltirib chiqaradi.

Baliqlarni oziqlantirish texnologiyasi

Ochiq suv havzalaridagi kuzatishlar natijasi shundan dalolat beradiki yosh vobla, lesh, sazanlar kollektorlarda tuban qisqichbaqasimonlar, yuqori o'simliklar, xasharotlar, xironomidlar, molyuskalar xisobiga oziqlanadi. O'rtacha kuzatish olib borilgan xar xil guruhlarda tuban plankton qisqichbaqasimonlar yosh voblalarda 16,2% leshlarda 7,02% ni tashkil etadi. Xironomidlar voblaning umumiyligi oziqasini 6,5 % ini, lesh umumiyligi oziqasini 31,3 % ini va sazanlarda umumiyligi oziqa miqdorining 4,4% ni egallagan. Oziqa massalari hisoblangan nerest va mizidlarni iqlimlashtirish shunday natija berganki, bular ko'proq kollektorlardagi yosh baliqchalar ichagida mavjud bo'lgan. Agar bularni ichakda bo'lish nisbatini oladigan bo'lsak u holda mizidlar voblada o'rtacha 4,6%, leshda 3,6%, sazanda 1,1 % ni tashkil etadi. Nerest esa vobla oziqasida 2,4%, leshda 1,7% va sazanda 4,1 % ni tashkil etadi.

Xulosa va tavsiyalar.

Aholini qo`shimcha ozuqa maxsulotlari bilan taminlash maqsadida baliq va baliq maxsulotlarini ko`paytirish lozimdir. Bundan bir necha yillar oldin Yaponiya va O`zbekistonda yillik baliq go`shtini istemol qilish taqqoslanganda Yaponiyada bu aholi soniga 16kg dan to`g`ri kelgan bo`lsa, O`zbekistonda 400g ni tashkil etgan. Baliq maxsulotlari eng oqsilga boy, to`yimli, tansiqliligi bilan yuqori o`rinni egallaydi. Shularni hisobga olgan holda O`zbekiston Respublikasi vazirliklari hovuz xo`jaligida baliq yetishtirish, baliq konservalari ishlab chiqish bo`yicha maxsus qarorlar chiqargan.

Yuqoridagilarni hisobga olib, o`zimning bitiruv-malakaviy ishim natijalariga tayanib quydagilarni ko`rsatib o`tish lozim.

- Sun`iy suv havzalarini barpo etish uchun ekologik toza tuproqli aholi yashash joyidan olisda joy tashlash lozim.
- Hovuzlarni suv bilan to`ldirishda suvning ifloslanmaganligiga e`tibor qaratish kerak.

- Baliqlarni iqlimlashtirishdan oldin ularga mos ekologik sharoit yaratish talab etiladi.
- Baliqlarni ikralarini tez yetilishi, baliq sutlarini kuchli urug`larga boy bo`lishini taminlash uchun gipofizar in'eksiya metodidan foydalanish maqsadga muvofiqidir.
- Baliq lichinka-chavoqlarini yuqorida ko'rsatilgan ratsion asosida boqish tavsiya qilinadi.
- Baliqlar kasalliklarga chidamsiz bo'lib, ayniqsa baliq uchun bakterial va zamburug' kasalliklari ular uchun havflidir. Kasallik nimjon va yosh baliqlarga tez yuqadi.
Shuning uchun baliq kasalliklariga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak.

